

XALQ OG‘ZAKI IJODIDA OTA OBRAZI TALQINI
("ZUMRAD VA QIMMAT" ERTAGI MISOLIDA)

Abdurahmanova Asilabonu Alisherovna

TISU 2 - kurs talabasi.

Norkulova Shaxnoza Tulkinovna

Ilmiy rahbar.

TISU dotsenti (PhD). Termez (Uzbekistan).

shaxnoza_norkulova@tues.uz

ORCID: 0009-0008-7546-7613

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20716595>

Аннотация. В статье исследуются художественные и социально-психологические особенности образа отца в узбекском народном творчестве, в частности в волшебных сказках. На примере сказки «Зумрад и Киммат» анализируется роль отца в семье, его безволие и последствия этого для судеб детей.

Ключевые слова: фольклор, образ отца, «Зумрад и Киммат», семейные отношения, дидактика, безволие, мачеха, духовное совершенство.

Abstract. The article examines the artistic and socio-psychological characteristics of the father figure in Uzbek folklore, specifically in fairy tales. Using the example of the "Zumrad and Kimmat" tale, the father's role in the family, his lack of will, and the consequences for the children's destinies are analyzed.

Keywords: folklore, father figure, "Zumrad and Kimmat", family relations, didactics, weakness of will, stepmother, spiritual perfection.

Annotatsiya. Maqolada o‘zbek xalq og‘zaki ijodi, xususan, sehrli ertaklarda ota obrazining badiiy va ijtimoiy-psixologik xususiyatlari tadqiq etiladi. "Zumrad va Qimmat" ertagi misolida otaning oiladagi o‘rni, uning irodasizligi va bu holatning farzandlar taqdiridagi oqibatlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: xalq og‘zaki ijodi, ota obrazi, "Zumrad va Qimmat", oilaviy munosabatlar, didaktika, irodasizlik, o‘gay ona, ma‘naviy kamolot.

Xalq og‘zaki ijodi – millatning o‘tmishi, buguni va kelajagini bog‘lovchi ma‘naviy ko‘prik, xalqning asrlar davomida shakllangan etik va estetik qarashlari majmuidir. Har bir xalqning folklor namunalari, xususan, ertak janri jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar, oilaviy qadriyatlar va insoniy fazilatlarini badiiy shaklda saqlab keladi. O‘zbek xalq sehrli ertaklari o‘zining janr xususiyatlari, obrazlar tizimi va g‘oyaviy yo‘nalishi bilan boy meros hisoblanadi. Ushbu merosning markazida inson – uning ruhiy dunyosi, jamiyatdagi o‘rni va oiladagi mas‘uliyati turadi.

Oila – jamiyatning kichik bo‘g‘ini bo‘lishi bilan birga, har qanday davlat va millatning ma‘naviy barqarorligini belgilovchi asosiy mezondir. Ertaklarda oilaviy munosabatlar talqini doimo markaziy muammolardan biri bo‘lib kelgan. Bunda ota-ona va farzand, o‘gay ona va o‘gay qiz kabi munosabatlar tizimi orqali jamiyatning axloqiy qonuniyatlari uqtiriladi. Ayniqsa, ota obrazi folklor asarlarida an‘naviy ravishda "oila ustuni", "himoyachi", "yo‘l ko‘rsatuvchi" va "adolatli qaror qabul qiluvchi shaxs" sifatida gavdalanadi. Biroq, xalq ijodi hayotiy haqiqatlardan yiroq emas; unda ideallashtirilgan obrazlar bilan bir qatorda, insoniy ojizliklar, irodasizlik va ruhiy ziddiyatlar ham mahorat bilan aks ettirilgan.

“Zumrad va Qimmat” ertagi o‘zbek xalq og‘zaki ijodining shunday durdonalaridandirki, unda ota obrazi o‘zining murakkab va ziddiyatli tabiati bilan tadqiqotchilar e’tiborini tortadi.

Ushbu ertakda ota shunchaki ijobiy yoki salbiy qahramon emas, balki oilaviy nizolar girdobida qolgan, tashqi bosim va ichki mehr o‘rtasida muvozanatni yo‘qotgan realistik shaxs sifatida namoyon bo‘ladi. Otaning o‘z jigarbandi – Zumradni o‘gay onaning talabi bilan uydan chiqarib yuborishi, o‘zbek oila modelidagi ota mas’uliyati va uning irodasizligi oqibatlari haqida chuqur mushohada yuritishga undaydi. Insoniyat tamaddunining ilk bosqichlaridan boshlab, ota obrazi ijtimoiy tuzilmaning markaziy ustuni, himoyachi va qonun chiqaruvchi kuch sifatida talqin etib kelingan. O‘zbek xalq og‘zaki ijodida, xususan, ertak janrida ota obrazi shunchaki biologik tushuncha emas, balki jamiyatning axloqiy me’yorlarini o‘zida mujassam etgan murakkab strukturadir. Bugungi kunda oila institutini mustahkamlash va ota mas’uliyatini ilmiy nuqtayi nazardan o‘rganishda ushbu folklorik namunalar muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Ushbu maqolaning dolzarbligi shundaki, bugungi globallashuv davrida oila institutini mustahkamlash, ota-onaning farzand tarbiyasidagi roli va mas’uliyatini qayta anglash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ertakdagi ota obrazini tahlil qilish orqali biz xalqimizning ota fenomeniga bo‘lgan munosabatini, irodasizlikning oila taqdiriga ta’sirini va ma’naviy poklanish yo‘llarini ilmiy jihatdan asoslashga harakat qilamiz. Maqolaning maqsadi – “Zumrad va Qimmat” ertagi misolida ota obrazining badiiy-psixologik xususiyatlarini ochib berish va uning tarbiyaviy ahamiyatini yoritishdan iboratdir.

“Xalqimizda “Otang o‘ldi – qul yetim, onang o‘ldi – chin yetim” degan chuqur falsafiy maqol bor. “Zumrad va Qimmat” ertagidagi fojia shundaki, bosh qahramon onasi vafot etib “chin yetim” bo‘lgan bir paytda, otasining irodasizligi tufayli tirik ota bilan “qul yetim”lik qismatiga ham muhtalo bo‘ladi. Bu holat ota siymosining oiladagi himoyachilik funksiyasi naqadar hayotiy zaruriyat ekanligini isbotlaydi.” O‘zbek xalq ertaklarida ota obrazi odatda oilaviy nizolarni hal qiluvchi yakuniy kuch hisoblanadi. Biroq, “Zumrad va Qimmat” ertagida biz bu an’anaviy modelning o‘zgarishiga (transformatsiyasiga) guvoh bo‘lamiz. Bu yerda ota – passiv qahramon.

Uning irodasizligi shunchaki xarakter xususiyati emas, balki oilaviy iyerarxiyaning buzilishidir. Otaning o‘z qizi Zumradni o‘gay onaning tazyiqi bilan o‘rmonga tashlab kelishi, uning oila boshlig‘i sifatidagi ijtimoiy va ma’naviy maqomini boy berganidan dalolat beradi.

Folkloristik nuqtayi nazardan, bu holat “dualizm” (ikki yoqlamalik) deb ataladi: bir tomondan ota o‘z qizini yaxshi ko‘radi va unga achinadi, ikkinchi tomondan esa o‘gay ona timsolidagi “yovuz kuch”ga qarshilik ko‘rsatishga jur’ati yetmaydi. Bu ziddiyat ota obrazini psixologik jihatdan ancha murakkablashtiradi va o‘quvchida oilada erkak kishining o‘rni qanday bo‘lishi kerakligi haqida savollar uyg‘otadi.

Ertak poetikasida otaning “xatosi” syujetni harakatlantiruvchi asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladi. Agar ota irodali bo‘lib, Zumradni uydan haydamaganida, qizning sarguzashtlari va uning ma’naviy yuksalish jarayoni sodir bo‘lmas edi. Ota qizini o‘rmonga olib borar ekan, uni bilvosita “initsiatsiya” (ulg‘ayish sinovi) jarayoniga tayyorlaydi. Otaning ojizligi Zumradni o‘z kuchi, odobi va mehnati bilan yashashga majbur qiladi. Bu yerda ota – taqdirning shafqatsiz, lekin zaruriy asbobidir. Uning qizini o‘rmonda qoldirishi – farzandning mustaqil hayotga qadam qo‘yishi va o‘z taqdiri uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishiga ishoradir. Shuningdek, kampir (sehrli yordamchi) bilan uchrashuv aynan otaning bu “ayriliq” harakatidan so‘ng amalga oshadi.

Ertakning kulminatsion nuqtasi va yechimida ota obrazining o'zni beqiyos. Zumradning boylik bilan qaytishi va Qimmatning fojiasi fonida otaning holati yanada yorqinroq ochiladi. Otaning qizini qayta topganidagi quvonchi uning ma'naviy uyg'onishini ko'rsatadi. Biroq, xalq ijodi adolatni birinchi o'ringa qo'yadi: ota o'z vaqtida himoya qila olmagan ikkinchi qizi (Qimmat)ning fojiasi uning irodasizligi uchun berilgan og'ir jazodir. Bu obraz orqali yosh avlodga "loqaydlik va sustkashlikning badali og'ir bo'lishi" uqtiriladi. Ota – oilada shunchaki qatnashchi emas, balki adolat mezonlarini o'rnatuvchi hakam bo'lishi shartligi qat'iy ta'kidlanadi.

XULOSA

"Zumrad va Qimmat" ertagidagi ota obrazi o'zbek xalq og'zaki ijodining eng teran va hayotiy obrazlaridan biridir. Maqola davomida olib borilgan tahlillar quyidagi yakuniy xulosalarga kelish imkonini beradi:

Birinchi, ushbu ertakdagi ota obrazi orqali xalqimiz oilada erkak kishining ma'naviy-axloqiy irodasi naqadar muhimligini ko'rsatib bergan. Otaning sustkashligi oila yaxlitligining parokanda bo'lishiga va adolatsizlikning ildiz otishiga zamin yaratadi.

Ikkinchi, ota obrazi ertakning kompozitsion qurilishida "yo'l ochuvchi" vazifasini bajaradi. Uning xatosi bosh qahramon Zumradning o'zligini namoyon qilishi va yuksak odob-axloq egasi sifatida tanilishiga sabab bo'ladi. Bu esa yomonlikdan ham yaxshilik unib chiqishi mumkinligi haqidagi falsafiy g'oyani ilgari suradi.

Uchinchi, ota obrazi o'quvchida oilaviy mas'uliyat tuyg'usini shakllantirishda katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Uning ertak yakunidagi pushaymonligi va qayta tiklangan adolat tuyg'usi insonni o'z xatolaridan xulosa chiqarishga va oilaviy qadriyatlarni e'zozlashga chorlaydi.

Xulosa qilib aytganda, xalq og'zaki ijodidagi ota obrazi – bu milliy tarbiya tizimining ko'zgusi bo'lib, u bizni doimo hushyorlikka, adolatga va o'z yaqinlarimiz taqdiri uchun mas'ul bo'lishga o'rgatadi. Ushbu ertak asrlar o'tsa-da, oila boshlig'ining o'zni va vazifasi haqidagi o'lmas haqiqatlarni o'zida saqlab qolaveradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Imomov K. O'zbek xalq prozasining janrlar tizimi va poetikasi. – Toshkent: Fan, 1989.
2. Safarov O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. – Toshkent: Musiqa, 2010.
3. O'zbek xalq ertaklari. 2 jildlik. – Toshkent: Sharq, 2012.
4. Madaev O. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2010.
5. Razzokov H. O'zbek xalq og'zaki ijodi (Darslik). – Toshkent, 1980.